



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 24-yanvar, shanba,
6-7 (24.186-24.187)-son

O'zbek xalq
maqoli

Har gulning
o'z isi bor,
har elning
o'z tusi

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



info@zarnews.uz

Yil boshidagi dastlabki sessiyada

o'tgan yil yakunlari tahlil qilinib,
bu yilgi muhim vazifalar muhokama qilindi

23-yanvar kuni xalq deputatlari viloyat Kengashining yigirma beshinchi sessiyasi o'tkazildi. Sessiya ishini Kengash raisi Sh.Negmatov boshqardi.

Sessiya avvalida Kengashning 2025-yildagi faoliyati haqida ma'lumot berildi. Yil davomida sessiyalarda faol ishtirok etgan va saylovchilari bilan muntazam aloqa o'rnatib, ularning muammo va masalalari ijobiy hal etilishiga hissa qo'shgan deputatlar e'tirof etildi.

Shundan so'ng sessiya kun tartibiga muvofiq viloyatda kriminogen vaziyatni yaxshilash, jinoyatlarning barvaqt oldini olish, omillarini bartaraf etish yuzasidan ko'rilgan choralar bo'yicha viloyat prokurori M.Eshnazarovning axboroti tinglandi.

Qayd etilishicha, o'tgan yil viloyatda 15998 ta jinoyat hisobga olingan va 2024-yilga nisbatan 70 foizga ko'paygan. Bu jinoyatlarning 7601 tasi (48 foizi) axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarni tashkil qilgan. Shuningdek, viloyat prokuraturasi organlari tomonidan 429 ta jinoyatning hisobdan yashirilganligi aniqlanib, markazlashgan hisobga qo'yilishi ta'minlangan.

– Davlatimiz rahbarining 2025-yil 3-yanvardagi “Mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qaroriga muvofiq, har bir mahallada huquqbuzarlikning erta oldini olish, kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish bo'yicha yangi mexanizm joriy etildi, – dedi M.Eshnazarov. – Barcha tuman va mahallalarning choraklik manzilli “yo'l xaritasi” ishlab chiqilib, ijroga qaratildi. Natijada mahallalarda 404 ta o'g'rilik, bezorilik va boshqa turdagi jinoyatlar hamda 476 nafar shaxsning jinoyat qurboni bo'lishining oldi olindi. Shuningdek, 6128 ta jinoyat fosh etilib, 1110 nafar qidiruvda bo'lgan shaxs ushlendi, 3241 ta jinoyat aniqlandi. Jinoyat sodir bo'lgan mahallalar soni oydan-oyga kamayib, “qizil” toifadagi mahallalar 118 tani tashkil qilib, 2024-yilga nisbatan sezilarli darajada kamaydi. Tegishli organlar va mahallalar bilan hamkorlik natijasida viloyatimizda qotillik, bosqinchilik, nomusga tegish, o'lim bilan bog'liq yo'l transport hodisasi kabi aholi kayfiyati va kriminogen vaziyatga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi jinoyatlar kamayishiga erishildi.

Tahillarga ko'ra, 2025-yilda viloyatda sodir etilgan qotillik va tan jarohati yetkazish jinoyatlarining salmoqli qismi oila – turmush munosabatlari doirasida yuzaga kelgan kelishmovchiliklar tufayli kelib chiqqan. Jumladan, zo'rovonlik va tan jarohati yetkazish bilan bog'liq jinoyatlarning 32 foizi (269 ta) hamda qotilliklarning 51 foizi (18 ta) aynan oilaviy kelishmovchiliklar tufayli sodir qilingan.

Shu bois “Oiladagi sog'lom muhit – xavfsiz ko'cha va xavfsiz mahalla tayanchi” tamoyili asosida oilalardagi muhitni sog'lomlashtirish, ijtimoiy profilaktika tizimini yanada yaxshilash borasida tegishli choralar ko'rish lozimligi ta'kidlandi.

Sessiyada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi “Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Samarqand shahri bo'yicha ishlab chiqilgan transport va yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish Bosh rejasiga asosan 2024-2025-yillarda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan viloyat transport boshqarmasi boshlig'i R.Tojiyev hisobot berdi.

Hisobotda keltirilishicha, bugungi kunda viloyatda 314 ta yo'nalishda 3241 ta transport vositasi aholiga xizmat ko'rsatmoqda. Shuningdek, 27 ming 191 nafar fuqaro o'zini o'zi band qilgan holda yo'nalishsiz tak-

si xizmati ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanmoqda. 2025-yil davomida aholining talab va takliflaridan kelib chiqib, qishloqlarni tuman markazi, tuman markazini viloyat markazi bilan bog'lash uchun 10 ta yo'nalish ochildi. Yil davomida 101 million yo'lovchiga xizmat ko'rsatildi va xizmat hajmi o'tgan yilga nisbatan 18,4 foizga oshdi. Yangi avtovokzal va avtostansiyalar qurildi.

– Shahar jamoat transportida to'liq elektron to'lov tizimi joriy etildi – dedi R.Tojiyev. – Aholiga bank kartalari, ATTO yagona transport kartasi hamda QR kodli chiptalardan yo'lkira haqini to'lash imkoniyati yaratildi. QR kodli chiptalarni xarid qilish uchun 100 ga yaqin bekatda hamda aholi gavjum bo'lgan 800 ga yaqin nuqtada infokiosklar o'rnatildi. Buning natijasida elektron to'lov ulushi 50 foizga yetdi. Brut-to-shartnomasi orqali xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlariga 2024-yilda 13,9 milliard so'm to'langan bo'lsa, 2025-yilda 62,7 milliard so'm to'lab berildi. Samarqand shahrining turistik salohiyatidan kelib chiqib, Samarqand shahri bo'yab xorijiy va mahalliy sayyohlar uchun tarixiy maskanlarni bog'lovchi ikki qavatli “dabl-dekker” turistik yo'nalishdagi avtobuslar xizmati yo'lga qo'yildi.

Bu boradagi ishlar 2026-yilda ham davom etadi. Jumladan, bu yil Payariq tumanida rekonstruksiya qilingan Imom Buxoriy majmuasi ochilishi munosabati bilan mazkur hududga tashrif buyuruvchi xorijiy hamda mahalliy ziyoratchilarga sifatli transport xizmatini tashkil etish maqsadida Samarqand shahridagi temir yo'l vokzali, aeroport, Amir Temur maqbarasi va Imom Buxoriy majmuasi o'rtasida uchta yangi yo'nalish tashkil etilib, zamonaviy avtobuslar qatnovi yo'lga qo'yiladi. Samarqand shahrida elektrobustlar ulushini oshirish maqsadida yilning birichi yarmida 50 ta, yil yakuniga qadar yana 250 ta elektrobust olib kelinishi rejalashtirilgan. Shaharda tirbandliklarning oldini olish uchun hududlardan kirib keluvchi transport vositalarini shahar tashqarisida to'xtatish maqsadida 2 ta avtostansiya quriladi.

Deputatlar hisobot yuzasidan o'z fikrlarini bildirib, transport xizmati ko'rsatish sifatini oshirish bo'yicha takliflarini bayon etdilar.

Sessiyada mutasaddi idoralarning murojaatlarini inobatga olib, Jomboy tumanidagi “Qoramo'yin-2” Past Darg'omdagi “Iskandari”, Narpaydagi “Guliston” kichik sanoat zonalarini tugatish hamda Payariq tumanidagi “Xalqobod” muqobil mashina-traktor parki hududida hamda Kattaqo'rg'on shahrida Qo'shlovuz mahallasi hududida kichik sanoat zonalarini tashkil etish to'g'risida qarorlar qabul qilindi.

Shundan so'ng “O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida”gi Qonunga ko'ra, Kadastr agentligining “E'tirof” avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali kelib tushgan hujjatlar asosida 1500 nafar fuqaroning o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkasiga bo'lgan ijara huquqi hamda ularda qurilgan bino va inshootga bo'lgan mulk huquqi qonuniy tartibda e'tirof etildi.

Sessiyada xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining ayrim qarorlariga o'zgartirish kiritish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yil 27-dekabrda”gi “Samarqand viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirish to'g'risida”gi qarori ijrosini ta'minlash, 2026-yilda “E-auksion” orqali sotuvga chiqariladigan yaylov yer maydonlarini tasdiqlash, Osiyo taraqqiyot banki (OTB) bilan hamkorlikda “Institutsional va ijtimoiy infratuzilma binolarini “yashil” qayta jihozlash” bo'yicha ishlab chiqilgan loyiha konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi va boshqa masalalar ko'rib chiqilib, qarorlar qabul qilindi.

Senators mulohazasi

Davlatimiz rahbarining parlament va xalqimizga Murojaatnomasi asosida “O'zbekiston – 2030” strategiyasi takomillashtirilmoqda. Bu bejiz emas. Birinchidan, Prezident Sh.Mirziyoyev parlamentga, jamoatchilikka, aholimizga mamlakatimiz taraqqiyotining real holatini ko'rsatib berdi. Bu holat taraqqiyotga yuz tutgan O'zbekistonning dunyo hamjamiyatida mavqei oshib borayotganligidan nishonadir. Tashqi iqtisodiy aloqalarda eksport hajmining, bizga kelayotgan sarmoyalar hajmining yildan-yilga oshib borayotganligi, kambag'allik va ishsizlikning kamayib borayotganligi, turli reytinglarda yuqorilayotganligimiz fikrimning isbotidir.

KARVON OLG'A INTILADI

Ikkinchidan, mamlakatimiz sanoatiga IT texnologiyalari, mashinasozlik, kimyo va sun'iy intellekt jadal kirib kelmoqda. Raqobatbardosh mahsulotlar rag'batli yo'lga qo'yildi. Eng muhimi, o'lkamizdagi xomashyoni qayta ishlashda katta hajmda ishlar bajarildi.

Uchinchidan, jamiyatni demokratlashtirish va qonunchilikka xalqaro etalonlarga moslashyapmiz. Bu esa o'z navbatida jamiyatdagi yetakchi kuchlarning real faoliyat yuritishiga zamin yaratmoqda. Shu bois ham xalqimiz davlatimiz rahbarining 2026-yilni “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e'lon qilish tashabbusini qo'llab-quvvatladi.

Darhaqiqat, mahallaning rivojlanishi bu eng avvalo, har bir inson hayotini farovon qilish bilan barobar. Mahallaning rivoji insonning hayotiga bo'lgan nuqtai nazarining o'zgarishi bilan barobar. Demak, mahalla rivojlansa, jamiyat o'z-o'zidan yuksaladi.

«O'zbekiston – 2030» strategiyasi xalq muhokamasiga qo'yilganda unda nimalarni o'zgartirish nazarda tutilaypti?

Bu, eng avvalo, aholining ehti-

yoji, orzu-umidini o'rganish bilan bog'liq. Bu tajribamizning ortgani, har qanday murakkab rejani bajara olishimizga ishonch paydo bo'lganini ko'rsatadi. Chunki taraqqiyot reytingida, kambag'allikni qisqartirish sohasida, eksport hajmini oshirishda biz bir yil ichida ikki-uch yilga mo'jallangan rejalarni uddalashga erisha oldik.

Stretagiya bundan tashqari, har bir loyihaning ijro muddati qayta ko'rib chiqilmoqda. Unda o'sha mintaga ehtiyoji to'la hisobga olinadi. Bunday loyihalarga mahalliy ishlab chiqaruvchilar, o'zimizning mahalliy mutaxassislar jalb qilinishi ko'zda tutilmoqda. Shuningdek, mahalla infratuzilmasini shakllantirishda xizmat turlarini ko'paytirish uchun o'sha mahallalar yoshlari hisobidan mutaxassislar tayyorlash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash rejalari kiritilmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, aholimiz davlat rahbari murojaatini juda iliq kutib oldi va u kishining har bir taklifi yuzasidan o'z nuqtai nazarini bildirmoqda. Xususan, taraqqiyot strategiyasini takomillashtirish bo'yicha tushayotgan takliflarning aksariyat qismi o'z sarmoyadorlarimiz, mutaxassislarimiz, jumladan, iqtidorli yoshlarimiz tashabbuslari ekanligi quvonchlidir.

Demak, O'zbekiston karvoni jahon bo'yab dadil odimlamoqda. Yangi O'zbekiston xalqaro hamjamiyat o'rtasida butun bo'y-basti bilan o'zini namoyon qilmoqda. Buning hammasi tashabbuskor, bunyodkor va mehnatkash xalqimizning yuksak e'tiqodi, aql-zakovati, mashaqqatli mehnati tufayli yuzaga kelayotganligi barchamiz uchun ham faxrdir.

Shavkat SHARIPOV,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

SAMARQAND “SOVQOTIB” UYG'ONDI



Kun mavzusi



Ha, 23-yanvar tongini aksar samarqandliklar sovuqotib, junjikib qarshi oldi. Chunki qish boshlanganidan buyon yurtimizda juda sovuq harorat kuzatilmagandi. 22-23-yanvar kunlari havoning -6... -10 darajagacha soviz ketishi ko'pchilikni shoshirib qo'ydi. Garchi bundan bir necha kun avval mamlakatimizda havo harorati keskin tushib ketishi haqida ogohlantirish berilgan bo'lsa-da, ta'minot bo'lmagach, nailoj?!

(Davomi 4-sahifada) >>>



Adiz Boboyev kasb-hunarga
o'qitish hamda kasbiy ko'nikmalar
markazlari faoliyati bilan
tanishdi



Jamoatchilik Murojaatnoma va
Xavfsizlik kengashidagi vazifalarni
muhokama qildi



Muddatli harbiy xizmatni
o'tayotgan askarlar oliy ta'lim
muassasalariga tavsiyanoma uchun
test sinovidan o'tkazildi



Prezident farmoniga ko'ra

Joriy yildan ayollar ishlamasdan turib homiladorlik va tug'ish nafaqasini olishlari mumkin. Tabiiyki, uy bekalari bo'lgan ko'pchilik ayollarni mazkur nafaqani olish tartibi qiziqitirmoqda. Prezidentning 2025-yil 3-noyabrdagi farmoni bilan 2026-yil 1-yanvardan O'zbekiston Respublikasida davlat ijtimoiy sug'urtasining yangi tizimi joriy etildi. O'zbekiston Respublikasining "Davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi.

Uy bekalari ham

“dekret”

puli oladi

Bu qanday tartibda amalga oshirilishini bilasizmi?

Mazkur hujjatlarga ko'ra: Fuqarolarning ixtiyoriy asos-lardagi davlat ijtimoiy sug'urtasi bilan qamrab olinishi sharti — mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 5 foizi miqdoridagi har oylik sug'urta badalining eng kam miqdorini to'lash evaziga (bugungi kunda bu 63550 so'm) bo'ladi.

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-dekabrdagi 796-son qarori 4-ilovasi bilan tasdiqlangan "Davlat ijtimoiy sug'urtasi doirasida vaqtincha mehnatga layoqatsizlik hamda homiladorlik va tug'ish nafaqalarini tayinlash hamda to'lash tartibi to'g'risida"gi nizomning 4-bandiga ko'ra, sug'urta hodisalari yuzaga kelgan taqdirda sug'urtalangan shaxslarga quyidagi davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha to'lovlar to'lanadi:

joriy yil 1-yanvardan yuzaga kelgan sug'urta hodisasiga nisbatan homiladorlik va tug'ish nafaqasi;

joriy yil 1-iyuldan yuzaga kelgan sug'urta hodisasiga nisbatan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi.

Buning uchun nima qilish kerak?

Soliq ilovasida o'zingizni o'zingiz band qilishingiz kerak. "Inson" ijtimoiy xizmatlar markaziga borib yoki my.gov.uz portali orqali elektron murojaat qilib "Ijtimoiy sug'urta" moduli-da elektron ro'yxatiga kiring.

Sug'urta stajini kuzatib borish va nafaqani olish uchun "Yagona milliy ijtimoiy himoya" va "Baraka" mobil ilovalarini telefoningizga o'rnatib. Yanvar oyidan boshlab sug'urta badallari ixtiyoriy ravishda istalgan tijorat bankiga murojaat qilish orqali yoki mustaqil ravishda "Ijtimoiy karta" axborot tizimi yoki uning "Baraka" mobil ilovasi orqali amalga oshiriladi.

Sug'urtalangan shaxs uchun sug'urta badallari to'lovi amalga oshirilgan davr kamida ketma-ket 10 oy bo'lsa, sizda nafaqani olish uchun sug'urta stajingiz yetarli bo'ladi.

Misol. Lolaxon yanvar oyidan boshlab, dekabr oyigacha ketma-ket 12 oylik davrda 100000 so'mdan sug'urta badallari to'lab bordi.

Lola bu davrda may oyida 5 kun kasal bo'ldi. Kasallik nafaqasi uchun 6 oylik sug'urta staji yetmadi. Demak, sug'urta hodisasi yuzaga kelmaydi va unga nafaqa to'lanmaydi.

Lola avgust oyida 10 kun kasal bo'ldi va

sug'urta hodisasi yuzaga keldi, chunki u sug'urta badallarini to'lab kelayotganiga 6 oydan oshgan. Unga 9 kun uchun (dam olish va ishlamaydigan bayram kunlari hisobga olinmaydi) proaktiv shaklda nafaqa to'landi.

Lolaga dekabr oyida homiladorlik va tug'ish davri (126 kalendar kun)ga kasallik varaqasi ochildi. Sug'urta staji esa yetarli — 10 oydan oshgan.

Ana endi nizomning 16-bandidagi formulaga qo'yib hisoblaymiz.

Nafaqa miqdori=O'OIH÷ 25,3 x SK x KS

O'OIH — hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi;

25,3 — ish kunlarining o'rtacha oylik soni;

SK — sug'urta stajiga mutanosib ravishda o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan qo'llaniladigan staj koeffitsienti;

KS — mehnatga layoqatsizlik varaqasida ko'rsatilgan davr ichidagi Jamg'arma hisobidan qoplab beriladigan kunlar soni.

Nafaqani hisoblab ko'ramiz.


Lola 10 oyda bir xilda to'lab borgan summa 100000 so'm. Bunda 10 oydan 2 yilgacha sug'urta stajiga ega bo'lgan ayolga 75 foiz staj koeffitsienti qo'llaniladi.

126 kalendar kunlik davrdan yakshanba va bayram kunlarini chiqarib tashlansa, taxminan 105 kalendar kun qoladi. 2000000÷25,3*75%*105.

Lolaga homiladorlik va tug'ish davri uchun 6225296 so'm 44 tiyin nafaqa to'lanadi.

Esda tuting! Sug'urta badalini to'lash yoki to'lamaslik sizning ixtiyoringizda. Agar har oyda to'lab borsangiz, o'zingiz uchun nafaqat dekret pullari, hatto ishlamasdan kasallik nafaqalarini ham olish huquqingiz kafolatlanadi.

Ra'no ISOMITDINOVA, ekspert.



Oiladagi zulm, zug'um bilan bog'liq ba'zi ko'rguliklar haqida eshitar ekansiz, beixtiyor uning ildizlari haqida o'ylay boshlaysiz. Ayniqsa, shu masalalar bilan shug'ullanib yurgan mutaxassislar aybni bir insondan izlamaydi. Hatto, zulmkor ham o'z-o'zidan bu holga kelib qolmagani, uning ham o'z haqiqatlari borligini bayon etishadi. Lekin bu haqiqatlar ham uni oqlay olmaydi-da.

“ONAM AJRASHGAN, MENAM AJRASHMAY, DEDIM...”

Sarvinoz (ism o'zgartirilgan) 18 yoshida chekka bir qishloqqa kelin bo'lib tushdi. Hali navniholgina qizni o'zidan o'n yosh katta erkakka ikkinchi xotin sifatida, rasmiy nikohsiz uzatishga kattalarni nima undadi ekan? Bu haqda keyinroq to'xtalamiz. Uning bu oilada ko'rgan-kechirganlari har qanday insonni dahshatga soladi.

Sarvinoz kelin bo'lib tushgach, barcha kelinlar singari ro'zg'or yumushlari bilan andamon bo'ladi, orada o'g'il farzand ko'radi. Mayda-chuyda gaplar, kelinni kamsitishlar odatga aylanadi, Sarvinoz ham hayot shu ekan, deya bu zug'umlarga chidaydi. Axir shundog'am onasi momosi bilan yashagan, u esa tog'asining qo'lida katta bo'ldi. Maktabga bormadi, faqat uy ishlari bilan shug'ullandi. "Endi menam ajrashib borsam odamlar nima deydi, bularning o'zlarida bir gap bor ekan, deb o'ylamaydimi qishloqdagilar?" Sarvinoz faqat shu xayolda bo'ldi, shu xayol bilan har kungi kamsitishlarga chidadi. Keyin ikkinchi farzandi tug'ildi. Kamsitishlar yo'l ko'tarishga, tahqirlashga aylandi. Qaynona gigijilaydi, er uning gapiga quloq solib, battar jazavaga tushadi. Oxiri ona va o'g'il bolalarni olib qolib, bu ayoldan ham voz kechish payiga tushadi.

- Avvaliga chordoqqa olib chiqib osishga harakat qilishdi, rosa yalindim.

- Baqir-chaqirni hech kim eshitmadimi?

- Dasht hududi-ku, xonadonlar bir-biridan uzoqroqda joylashgan.

- Onangiz, tog'angiz bu haqda bilarmidi, nega ular jim qarab turishdi?

- Boshqa viloyatdan kelin bo'lib tushganman, qo'limda telefon yo'q, uyga kam borardim, ruxsat berishmasdi. Qaynonamning, o'zini o'zi osib qo'yibdi, deb gap chiqaramiz, aqlidan ozibdi, deb aytayotganini eshitdim bir necha marta.

- Nega yo'lini qilib ichki ishlarga qo'ng'iroq qilmagansiz, mahallaga bormagansiz?

- Bir necha marta shunaga holat bo'lgandan keyin mahallaga bordim, ular markazga murojaat qilishimni aytdi. Keyin markazga bordim va o'sha yerda menga yordam berishdi.

- Qanday yordamlar ko'rsatildi?

- Asabiylikdan sog'ligim ancha yomonlashib qolgandi, tibbiyot xodimlari, ruhshunoslar men bilan ishlashdi. Ikki farzandimni ham ular olib qo'yishga harakat qilishdi, markaz huquqshunos bi masaladayam menga yordam berdi. Bu yerda o'zimga ishonchim ortdi. Mana, sizlarga ham bu haqda bemalol gapirib beryapman. Oldin bularni gapira olmasdim...

TIZIM CHINAKAMIGA ISHLEY BOSHLAGI

Bu voqea ortida qanchalik dard, qanchalik chuqur yaralar va ularni niqoblashga intilish borligi baribir sezilib turardi. Hali 25 ga ham kirmagan ayol u. Yaxshi kelin bo'lsam, hammasiga chidasam, oilamni saqlab qolaman, deya intilayotgan ayol. Endi bolalarim uchun yashayman, ular uchun qaddimni tik tutaman, deya ahd qilgan ayol.

Bir paytlar oiladagi maishiy zo'rvonlik haqida gapirish, ularni himoya qilish murakkab jarayon edi. Bu holatlar ko'paygach, garchi gapirila boshlasa-da, ammo bunday oilalarga, xotin-qizlarga ko'mak berish tartibi, imkoni deyarli yo'q edi. To'g'ri, xotin-qizlar qo'mitalari qoshida shunday markazlar tashkil etilgan, ammo bino bor-u, unda yashash uchun hech qanday imkon bo'lmadi. Ya'ni, ularni ma'lum muddat bo'lsa-da, oziq-ovqat bilan ta'minlash, farzandlarining yashashi uchun sharoit yaratish ko'zda tutilmagani uchun bu maskanlarga ayollarni joylashtirishni ham mutasaddilar xayoliga keltirmasdi.

Keyingi yillarda masalaga tizimli yondashuv yuzaga keldi. Avvalombor, "Tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanganlar uchun reabilitatsiya xizmatlari" milliy standarti ishlab chiqildi. Yordam berish tartiblari ham aynan ana shu standartlar asosida amalga oshirila boshlandi. Unga ko'ra, tazyiq va zo'rvonlikka uchragan, o'z joniga qasd qilishga uringan ayollar, ularning voyaga yetmagan farzandlari uchun shahar va tuman markaziy shifoxonalari shoshilinch qabul bo'limida birlamchi ko'mak xonalari tashkil etilgan bo'lib, ilk yordam o'sha yerda ko'rsatiladi. Keyinchalik zarurat bo'lganda, ular Ijtimoiy himoya milliy agentligiga qarashli Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublikasi markazining hududiy bo'limlariga joylashtiriladi va vaqtincha boshpana bilan ta'minlanadi. Xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlari to'g'risida gi ma'lumotlar "Yagona milliy ijtimoiy himoya"



axborot tizimida shakllantiriladi.

112 yagona dispetcherlik xizmati hamda 1146 qisqa raqamli "ishonch telefoni"ga tazyiq va zo'rvonlik holatlari bo'yicha murojaatlar kelib tushganda, mutaxassislar tomonidan xotin-qizlarga ijtimoiy, psixologik, huquqiy hamda boshqa masalalarda xizmatlar ko'rsatiladi. Zo'rvonlik sodir etgan shaxsga chora ko'rish zarur bo'lgan hollarda qo'ng'iroqlar ichki ishlar organlari navbatchilik qismining "102" telefon raqamlariga yo'naltiriladi.

Patronaj hamshiralar xonadonlarga tashrif buyurish jarayonida kuzatilgan xotin-qizlarga tazyiq va zo'rvonlik holati yuzasidan zudlik bilan majburiy tarzda ichki ishlar idoralariga xabar beradi.

ISHONCHNI QAYTARISH – MUHIM MASALA

- Yil davomida markazimiz 55 nafar ayolga shunday xizmatlarni ko'rsatdi, - deydi ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublikasi markazi viloyat bo'limi rahbari Gulmira Rahimova. - Asosan 12 toifadagi xotin-qizlar bilan ish olib boramiz. Ushbu mezonlarning barchasi mahallalarda faoliyat ko'rsatadigan ijtimoiy xodimlar tomonidan doimiy ravishda o'rganib boriladi. Tegishli ko'rsatmalar bo'lgach, markazga keltiriladi.

Odatda zo'rvonlikka uchragan ayolning ruhiyatida, salomatligida jiddiy o'zgarishlar bo'ladi. Birinchi navbatda shu bilan ishlaymiz. Ayol bu haqda gapirishni istamaydi, dardini aytish uning uchun yana bir jiddiy stress, ruhiy buzilishga olib keladi. Shuning uchun bu masalada har bir ayolga individual yondashyapmiz. Ruhiy, tibbiy yordamdan so'ng ularning huquqiy masalalari o'rganiladi. Chunonchi, uning haq-huquqlari, farzandlariga egalik huquqi, uy-joy masalalari va boshqa jihatlar huquqshunosimiz tomonidan amaliy tartibda ijro etiladi.

Markazimizda yashayotgan ayollarning farzandlari uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlari bepul, maktabga qatnaydiganlari uchun umumta'lim muassasasi tanlab, hujjatlashtirish ishlarini amalga oshiramiz. Ayollarning o'zlari vaqtini shunchaki o'tkazmaydi, markazda 5 turdagi kasb-hunar o'rganish kurslari yo'lga qo'yilgan. Aksariyati bu yerdan hunar o'rganib, keyinchalik ro'zg'orini uddalab ketganlarini ko'rib, ishimizdan mamnun bo'lamiz. Ammo muammolari yechimi uchun uzoq vaqt lozim bo'lgan ayollar ham ko'pchilik.

Bizning maqsadimiz birinchi navbatda ayolni hayotiga, uning o'ziga, yashashga bo'lgan ishonchini qaytarishdan iborat. Biz uning oilasi, turmush o'rtog'i bilan ishlamaymiz, asosiy e'tiborni ayolga qaratamiz. Agressorning "haqiqat"lari

- Aslida hech bir inson zo'rvon bo'laman, ayolim yo boshqalarga ziyon yetkazaman, deb tug'ilmaydi, bunga intilmaydi, - deydi markaz psixologi Fotima Yunusova. - Agressor, ya'ni bizning tilda zo'rvonni shunday nomlashadi, bunday holga kelishiga o'z oilasidagi notinchliklar, bolaligida oilasida ko'rgan zulmlar sabab bo'ladi. Ong ostida qolib ketgan adolatsizliklar, unga nisbatan bo'lgan kamsitishlar bora-bora ichki bir nafratga aylanadi va u ulg'aygach, hammadan alaminli olishni istaydi. Bu alamin chiqarib yuborish insonni o'ziga, o'z ustida qanchalik ishlashiga bog'liq. Psixolog mutaxassisga murojaat qilish lozim bunday holatlarda.

Dolzarb mavzu

Zo'rvonlikka uchraganlar

Tabiiyki, insonning bunday o'tmishi unga zulm uchun eshik ochiqligini bildirmaydi. Har bir inson avvalo, o'z xatti-harakatiga javob bera olishi kerak. Harakatlarining noto'g'ri ekanligini anglab, o'z vaqtida bunga barham bermas ekan, bu holatga o'zi ham ko'nikadi va avj oladi.

Keyin ayoliga qo'l ko'taradigan ko'pchilik erkaklar bunga bahonalar izlaydi, rafiqasidan kamchilik axtaradi va u bunga majbur ekanligini aytadi. Aslida bu o'z-o'zini oqlashdan boshqa narsa emas.

OILAMNI ASRAB QOLMOQCHIMAN!

- To'g'ri, bu yerga kelgach, o'zimni ancha tiklab oldim, o'zimga o'xshagan ayollarni ko'rdim, kimdandir o'rgandim, kimgadir ibrat bo'ldim, - deydi shu markazda yashagan yana bir ayol. - Oliy ma'lumotli mutaxassis bo'lganim uchun oilamizda notinchliklar yuzaga kelgan paytdanoq avvalo, aybni o'zimdanda izlay boshladim. Ehtimol, yaxshi oila bekasi bo'lmayotgandirman, deb o'zimni tahlil qilishga harakat qildim. Lekin oilamizdagi notinchliklar barham topmadi, doimiy janjal, qo'l ko'tarishlar, hayotimga nisbatan tajovvuzlar...

To'g'ri, markazda biz, ayollarga zarur bo'lgan barcha xizmatlar ko'rsatilyapti, salomatligimiz, ish bilan ta'minlash deysizmi, hamma muammomizni qamrab olgan holda ish olib borilyapti. Lekin meni o'ylantirayotgan masala bor. Men bu yerdan chiqib, yana o'sha uyimga qaytishim kerak. Zulm qilayotgan inson bilan hech kim ishlamayapti-ku! Uning fikrlashi, o'zini tutishi necha yillar davomida o'zgarmayapti, axir. Farzandlarim otasiz o'smasligini men ham istayman, ajrashib ketish oson. Lekin ular o'z otasi bilan katta bo'lishi kerak, degan fikrdamdan, bir oila bo'lib yashasak, deymen. Ammo hozir qaytib borsam, yana o'sha ahvol, qolaversa, ichki ishlar idoralari aralashgani tufayli "meni sharmanda qilding", deb avvalgidan ham battar holatga solishi mumkin-da, axir.

XULOSA O'RNIDA

Ayolning fikri kishini o'ylantiradi: maslahat berish oson, lekin uning o'rniga o'zingizni qo'yib ko'rsangiz, qanday yo'l tutish kerakligi haqida jiddiy o'ylash kerak. To'g'ri, yuqorida ta'kidlanganiday, bugun zo'rvonlikka uchrayotgan xotin-qizlar uchun barcha bosqichlarni ko'zda tutadigan tizim ishlay boshladi. Ammo ayolni shunday holga keltirayotgan, oilaning tinchligiga xavf solayotgan inson bilan kim ishlaydi? Tizimli ishlarning keyingi bosqichlarida bu masalaga ham e'tibor qaratiladi, degan umiddamiz.

Gulruh MO'MINOVA, "Zarafshon" muxbiri.

Keyingi yillarda davlat budjetiga kelib tushayotgan bojxona to'lovlari hajmi sezilarli darajada o'sdi. Xususan, viloyat bojxona boshqarmasi 2025-yilda budjetga tushumni rejadagi 3,67 trillion so'm o'rniga 3,85 trillion so'm etib bajardi. O'tgan yil bilan taqqoslanganda 458,7 milliard so'm yoki 13,5 foizga oshdi.

O'zbekistonda tadbirkorlarga imtiyozlar berish biznes rivojida muhim omil sifatida ko'riladi. Bu borada 2025-yilda tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida bojxona to'lovaridan 2,98 trillion so'mga yaqin imtiyoz va tarif preferensiyalari qo'llanildi. Bojxona to'lovlari bo'yicha berilgan imtiyoz 2024-yilga nisbatan 226 milliard so'mga yoki 26,5 foizga ko'paygan. Shu bilan birga, bojxona to'lovlarini kechiktirib to'lash tartiblari soddalashtirildi. Buning natijasida o'tgan yil 615,6 milliard so'm miqdoridagi bojxona to'lovlarini to'lashda tadbirkorlar ushbu imkoniyatdan foydalandi.

2025-yilda viloyat bojxona boshqarmasida tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari tomonidan eksport 1200,1 million dollarni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 302,5 million AQSh dollariga yoki 33,7 foizga ko'paygan.

Eksport tarkibidagi asosiy tovarlarni turlari bilan tahlil qilsak, meva-sabzavot - 433,7 million dollar yoki umumiy eksportning 36,1 foizini, metall va

BOJXONA

halol tadbirkorlik tarafdori



metall buyumlar – 170,6 million dollar yoki 14,2 foiz, transport va qismlari (samolyot 2 ta, 101 million dollar) - 149,9 million dollar yoki 12,5 foiz, oziq-ovqat - 140,6 million, to'qimachilik mahsulotlari 108 million, tamaki mahsulotlari 89,5 million, tosh, keramika va shisha buyumlar 17,1 million, kimyo sanoati mahsulotlari 12,1 million, elektrotexnika va uning qismlari 11,7 million dollarni tashkil etgan.

Shu bilan birga importimiz 2709,8 million dollarni tashkil etdi.

Bizga asosan metall va metall buyumlar, texnologik asbob-uskunalar, transport va uning ehtiyot qismlari, farmasevtika va tibbiyot buyumlari, plastmassa va rezina mahsulotlari, oziq-ovqat mahsulotlari, yoqilg'i-energetika va neft mahsulotlari, to'qimachilik mahsulotlari, kimyo sanoati mahsulotlari keltirildi.

26-yanvar – O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati xodimlari kuni

Import qilingan mahsulotlarimiz asosan Xitoy (29,9 foiz), Rossiya Federatsiyasi (26,8 foiz), Qozog'iston (7 foiz), hamda Turkiya (5,8 foiz) hissasiga to'g'ri keladi.

“Samarqand aeroporti” chegara bojxona posti orqali harakatlangan yo'lovchilar soni ham sezilarli oshdi. Masalan, 2024-yilda 1 million 361 ming 766 nafar yo'lovchi qayd etilgan bo'lsa, 2025-yilda yo'lovchilar soni 150 ming nafarga (11 foiz) oshdi.

“Jartepa” chegara bojxona posti orqali harakatlangan avtotransport vositalari 2024-yilda 107 ming 983 tani tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 136 ming 904 taga yetdi. Yo'lovchilar harakati esa 2024-yilga nisbatan 142 ming 844 nafarga ko'paygan.

Viloyat bojxonachilari tomonidan 2025-yilda aniqlangan 2044 ta huquqbuzarlik holatida jami 59 milliard 957,65 million so'mlik tovar va transport

vositalarining noqonuniy aylanmasiga chek qo'yildi. 1094 ta ma'muriy va 59 ta jinoyat ishlari qo'zg'atildi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar bilan bog'liq 54 ta holatda jami 80,6 kilogramm giyohvandlik moddasi, 19 holatda jami 9787 dona psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi tabletkalar noqonuniy aylanmasi aniqlandi.

39 holatda 287,9 million so'mlik 3273 litr alkol mahsulotlari hamda 227 holatda 1,6 milliard so'mdan ziyod 31 ming 970 quti tamaki mahsulotlarining noqonuniy aylanmasi ham to'xtatib qolindi.

Valyuta qimmatliklari olib o'tish bilan bog'liq 76 holatda 2,6 milliard so'm aniqlangan. Shuningdek, 91 holatda 12,7 milliard so'mlik 30,8 kilogramm zargarlik buyumlari ushlab qolingan.

Bugungi kunda tadbirkorlar va jismoniy shaxslar iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida Davlat bojxona qo'mitasining qisqa 11-08 raqamli va viloyat bojxona boshqarmasining (66)-233-63-00 raqamli “Ishonch telefoni” 24 soat davomida ishlashi yo'lga qo'yilgan.

2025-yilda viloyat bojxona boshqarmasiga jismoniy va yuridik shaxslar hamda fuqarolar tomonidan 160 ta murojaat kelib tushgan va ular belgilangan tartibda ko'rib chiqilgan.

G'ayrat SATTOROV,
viloyat bojxona boshqarmasi
axborot xizmati rahbari.

Kun mavzusi

Prezidentimizning 2025-yil 19-sentabrdagi “O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish to'g'risida”gi farmoniga asosan respublikamizda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiri o'tkazilmoqda. Bu jarayon jamiyatni chuqur o'rganish hamda ijtimoiy siyosatni manzilli va samarali yuritishga bo'lgan intilishning amaliy ifodasi hisoblanadi. Ro'yxatga olishning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining “Aholini ro'yxatga olish to'g'risida”gi Qonuni bilan tartibga solingan. Mazkur qonunga muvofiq aholini ro'yxatga olish mamlakatning butun hududida yoki uning muayyan qismida o'tkaziladigan, belgilangan sanada aholining demografik va ijtimoiy-iqtisodiy tavsiflarini belgilovchi shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish hamda ularga ishlov berishga qaratilgan davriy jarayondir. Demak, ro'yxatga olish faqat aholi sonini aniqlash bilan cheklanib qolmaydi, balki jamiyatning tarkibi, ularning ehtiyojlarini kompleks baholashga xizmat qiladi.

Qonunda aholini ro'yxatga olishning asosiy prinsiplari ham belgilangan bo'lib, ular davriylik, umumiylik, shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligi hamda ma'lumotlarning ishonchligidan iborat. Davriylik prinsipi aholini ro'yxatga olish tadbirlari mamlakat hayotida har o'n yilda o'tkazilishi zarurligini taqozo etadi. Ushbu normaning milliy qonunchilikda aks ettirilishi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan standartlariga to'la mos keladi. Ya'ni, Birlashgan Millatlar Tashkiloti a'zo davlatlarda milliy hisobga olish jarayonlari har o'n yilda o'tkazilishini tavsiya etadi. Chunki davlat kelgusi istiqbolini aniq ma'lumotlar asosida rejalashtirilgan dasturlar orqali belgilab olishi muhim.

Ro'yxatga olish jarayonida shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash davlatning muhim vazifalaridan biri bo'lishi kerak. Zero, shaxsiy ma'lumotlarning daxlsizligi ro'yxatga olish jarayonining zaruriy tamoyili bo'lishi bilan bir qatorda fuqarolarning Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan tabiiy huquqlarining kafolati hamdir.

Aholini hisobga olish yaqinda paydo bo'lgan ijtimoiy munosabat emas. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, aholini hisobga olish davlat boshqaruvida muhim vositalardan biri bo'lib kelgan. Xususan, Rim imperiyasida ushbu jarayon asosan soliq undirish, harbiy xizmatga yaroqli shaxslarni aniqlash hamda majburiyatlarini taqsimlash maqsadida amalga oshirilgan. Biroq bugun biz yashayotgan davrda ro'yxatga olish mazmunan butunlay boshqa yo'nalish kasb etib, u kuch ishlatishga yoki majburiyat yuklashga emas, balki jamiyat ehtiyojlarini aniqlashga xizmat qiladi. Mazkur jarayon orqali davlat qaysi hududda qancha aholi yashayotgani, ularning yosh tarkibi, bandlik holati va yashash sharoitlari haqida aniq ma'lumotga ega bo'ladi. Aynan shu ma'lumotlar asosida maktablar, bog'chalar, shifoxonalar qurilishi, bandlik dasturlarining ishlab chiqilishi hamda ijtimoiy yordam choralarining manzilli tashkil etilishi ta'minlanadi. Masalan, ro'yxatga olish natijasida muayyan hududda mehnatga layoqatli aholining bandlik darajasi past ekanligi aniqlansa, ushbu hududlarda yangi ish o'rinlari yaratishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi. Shu tariqa ro'yxatga olish natijalari ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda budjetdan ajratiladigan mablag'larning aynan ehtiyoj mavjud bo'lgan qatlamlarga to'g'ri yo'naltirilishini ta'minlaydi.

Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish jarayonini o'tkazishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Xususan, fuqarolarga maxsus elektron axborot tizimlari orqali ma'lumotlarni mustaqil ravishda taqdim etish imkoniyati yaratildi. Shu bilan birga, elektron ro'yxatdan o'ta olmagan yoki ushbu jarayonda qamrab olinmagan aholi qatlamlarini to'liq hisobga olish maqsadida an'anaviy usullarda, ya'ni bevosita so'rov o'tkazish orqali ro'yxatga olish ishlari amalga oshirildi. Ushbu yondashuv ma'lumotlarning to'liqligi va ishonchligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuni yodda tutish joizki, ro'yxatga olish ishlari doirasida fuqarolardan telefon orqali, ijtimoiy tarmoqlar yoki boshqa masofaviy aloqa vositalari orqali pul mablag'lari, SMS kodlar, bank kartalari rekvizitlari yoki shaxsiy akkauntlarga oid ma'lumotlar talab etilmaydi. Ro'yxatga olish jarayonida yig'ilgan ma'lumotlardan faqat statistik maqsadlarda foydalaniladi hamda ularning maxfiyligi qonun bilan kafolatlanadi.

G'iyosxon SAIDA'ZAMOV,
Toshkent davlat yuridik
universiteti talabasi.



Navoiy viloyatining Karmana tumani yassaviya tariqatining zabardast ikki murshidi – o'n birinchi xalqa piri Shayx Xudoydodi Vali (1461/62–1532) va o'n uchinchi xalqa piri Hazrati Qosim Shayx Azizon (vafoti 1578) tavallud topgan qadim maskan hisoblanadi.

Taqdir taqozosi bilan Shayx Xudoydodi Vali (asl ismi Xudoyberdi) 1500-yillarda Samarqandning G'azira mavzesini vatan tutadi va shu yerda vafot etadi. Ushbu maskan tabarruk ziyoratgoh sifatida mashhur.

O'tmishda aftoda yotgan ziyoratgohga mustaqillik yillarida katta e'tibor qaratildi. 2011-yilda Shayx Xudoydodi Vali taval-ludining 550 yilligi munosabati bilan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi va anjumanlar o'tkazildi. Ziyoratgoh hududi obodonlashtirildi. Bugun ham maskanda ulkan ishlar amalga oshirilib, shayx tavalludining 565 yilligini munosib nishonlash shabادلari ko'ngillarda orzu-umid uyg'otmoqda.

Imom G'azzoliy hazratlari yoza-di: “Xulq” va “xuluq” kalimalari ayni ildizdan keladi. Ya'ni, ikkalasi birgalikda qo'llanuvchi so'zlardir. Asos e'tibori bilan biri zo'hiriy, ikkinchisi esa botiniy - insonning ichki dunyosiga oid. Masalan, “falonchining xulqi va xuluqi go'zal” deyilsa, uning ichki va tashqi go'zalligi tushuniladi.

“Xuluq” tashqi tuyg'ular bilan idrok qilinadigan surat, hay'at va shakl ma'nolarini bildiradi. “Xulq” esa botinga dalolatdir va insonning tashqi ko'rinishida namoyon bo'lmaydigan omil. Uning haqiqati insonning axloqi, tabiati va amallari bilan akslanadi. Inson tashqi ko'rinishi bilan aslida kimligini qanchalik yashirmasin, bir kun ichki ko'rinishi albatta namoyon bo'ladi. Inson tashqi ko'rinishidan zavq olish uchun bir ko'zguga muhtoj bo'lgani kabi ichki olamini, fe'l va tamoyillarini o'rganish, lozim ko'rilgan shaklda tarbiyalash uchun ham bir avliyoning fayz va talqinlariga, ya'ni insonlarni tarbiya qiladigan, o'ziga o'zini tanishtiradigan ko'ngil ko'zgusiga muhtojdir.”

Demak, inson insonning tabiatidagi alomatlarini ochiq ko'radigan, anglaydigan, muhokama va muhohazasiga sabab bo'ladigan fe'l-atvori, odatlari - yoqimli va yoqimsiz qiliqlari “xuluq” bo'lib, aks “xulq” ekanligi bayon etilayotir. Bu hol darajasiga nisbatan

har bir kishida mavjud bo'lishi mumkin bo'lsa-da xos insonlarda, jumladan, tariqat ahlida – tasavvuf shayxlarida alohidalik kasb etadi.

Tasavvufshunos olim Najmiddin Komilov “Tasavvuf” asarida ushbu mazmunni shunday ifodalagan: “Kashfu karomat ko'rsatish, xoriqulodda xislatlar namoyish etish tasavvuf shayxlarining muhim jihatlari hisoblanadi. Tasavvufning sirliyligi, g'ayb olami bilan aloqadorligi ham shundadir. Yevropa olimlari tasavvufni “mistika” deganlarida shuni nazarda tutadilar”.

Yassaviya tariqatining mashhur siymolaridan Muhammad Olim Shayx Azizonning “Lamohat” asari bilan tanishar ekansiz, Hazrat Azizon Shayx Xudoydodi Vali bilan bog'liq voqeiklarda buni yanada yorqin his etasiz.

“Manoqib”da qayd etilishicha, Shayx Xudoydodi Vali ota-onasidan erta yetim qoladi va taqdir taqozosi bilan achchiq sinovlarga ro'baro' keladi. Shayxning o'zi ta'kidlaganidek: “Men birovlarining qo'ylarini boqib, cho'ponlik qilardim. Ochlik va yupunlikdan shunchalik qiyin ahvolga tushardimki, ba'zan holsizlanib, o'zimdan ketib qolardim... Sochlarim o'sib, manglayimga tushgan, yuzlarim sarg'aygan, oh-nolam dardu hasratga aylangan edi. Shunday bo'lsa-da, qiyinchiliklarimdan aslo shikoyat qilmasdim”.

Binobarin, ahvollarini hol tarbiyat etib, qanot bergan. Mavlono Boqiy Shervoniydan naql qilinishicha bir kuni Hazrat Azizon Qiztog'ida devor urayotgan edilar. Bir cho'pon hozir bo'lib, nay chala boshladi. Hazratning ahvoli o'zgarib, devor ustidan osmonga parvoz qildilar. Qaytganlaridan so'ng bu misrni o'qiddilar: Ey, vaqti Xushkim, meni vaqtimni xush qilding!

“Vaqti xush” madadkor va yor edikim, jasoratini uyg'otdi. Qarnabdagi voqealar buning tasdig'i bo'ldi. Qarnab beginning xalqqa ko'rsatayotgan jabru sitami ko'ngliga botib, Buxoro sari – amir dargohiga o'tlanadilar. Niyatlari amirga ko'p qatori dard aytish bo'lmagan. Holi bilan avvalin amir ko'ngliga kirib, so'ngra murodga o'tish bo'lgan. Shunday bo'ladi ham. Amir o'tkazayotgan polvonlar bellashuviga g'olib bo'lib, nazarga tushadi. Shu tariqa amir olqishlab, asl muddaosi yechim topadi. Hol yetkazgan g'oliblik sababidan Qarnab xalqi muddaosi voqey bo'lib, begi jazoga tortiladi.

Hollari alomatining yana bir tasdig'i shuki, bir kishiga (Mavlono Xalil Qorako'liya) g'aybdan “bu bolani (ya'ni, Xudoydodni) tarbiya qil, senga dunyo va oxiratda yordami tegadi”, degan ishorat yetar ekan. Bu kishi ushbu nido sababidan tarbiyatlarini o'z zimmasiga olibdilar. Ilm olishiga sabab bo'lib, maktabga beribdilar. O'zlarining so'zlaricha: Usti boshimni ko'rgan bolalar men bilan (yonma-yon) o'tirishga hazar qildilar. Eng quyidan, poygakdan o'rin topdim:

*Oshiqning kir choponi,
Ichra yuz ming jahoni.*

Ammo hollari domlaga namoyon bo'lib, dil izhorlari “tezda bu bola ko'pchilikka bosh bo'lib, ko'plar unga moyil bo'ladi” sababidan muhit tamoman o'zgargan ekan.

Ilmtalablik navbatida Xudoydodi Valini G'ijduvonga

boshlar ekan, yana faqirlik va qiyinchiliklar hamroh bo'larkan. Aytadilarki: “Menda na qazon, na kosa, na to'shanchi, na usti bosh bor edi. Bir eski po'stinim bo'lib, qishda jui tamonini, yozda teri tamonini kiyar edim”. Ammo noliish bilmasliklari va hollari baytlarida sermazmun ifoda topgan:

*Nolishni kam qil, ey Xudoydod,
sen faqirlardan emas,
Chunki Uning vasli nishonasi*

rizvon qasridan xubroqdir.

Zamonlar o'tib, kamolga yetganlari ayon esa-da “Lamohat”da yozilishicha, Shayx Xudoydodi Valining holini va ilmini taftish etish istagida bo'lganlar uchrab turar ekan. Ulardan biri Amir Xalil Maydoniy xonadoniga tashrifida: “Shayx Xudoydodi Vali qutublik da'vosini qilur ermish qabilida nopisanda gapiribdi. Amir Xalil Maydoniy o'ylamay netmay: “shunday da'volari bo'lsa, huzurimizga bir boshlab keling, adabini beramiz”, degandek so'z aytibdilar.

Ittifoqo, bir sabab bilan amirning o'zi Hazrati Azizon dargohida mehmon bo'libdi. Suhbat asnosida mezbonni sinov qilmoqqa chog'lansa, kutilmaganida tamog'iga bir narsa tiqlar bo'libdi. Bu voqea takror-takror yuz beribdi. Xijolat va hayron turganlarida Azizon ochiq chehrada kirib kelib va debdi: “Endi inkorlarni dilingizdan chiqarib tashlang” deya bayt aytibdilar:

*Xudovandkim, baland-pastni yaratdi,
Har zabardast qo'l, qo'lni yaratdi.*

Odob va unga itoatda bo'lish, tariqat ahlining vazifasi va burchi sifatida talqin etiladi va ahli misolida mashhur bayon etiladi. Bu “Tasavvuf boricha odobdur” haqiqatini anglatadi. “Lamohat”da Mavlono Ibrohim Sadirdan shu xususning tasdig'i darajasidagi o'zlari kuzatgan bir voqea bayon etiladi:

“Otam Hazrati Xudoydodi Vali Azizonning muridlaridan edilar. Biz Miyoqonda istiqomatda edik. Kunlarning birida Shayx Xudoydod xonadonimizga tashrif buyurdilar. O'sha kuni Maxdumi A'zam va Husayn Xorazmiylar ham mehmonimiz bo'lishdi. Katta suhbat quurildi. Husayn Xorazmiy (1465-1551) musiqachiga nay chaldirib, “samoviy zikrga” (Kubroviya tariqatiga xos raqs) tushdilar. Qolgan ikkalalari tik oyoqda turib, hurmat bajo keltirdilar. Navbatida Hazrati Maxdumi A'zam (1463/64-1542) zikr (Naqshbandiya tariqati asnosida) qildilar. Qolgan ikkalalari tik oyoqda turib, hurmat bajo keltirdilar. So'ngra Hazrat Xudoydod (1461/62-1532) “zikri arra” (Yassaviya tariqatiga xos) tortdilar. Qolgan ikkalalari tik oyoqda turib, hurmat bajo keltirdilar.”

Samarqand sarzaminidagi ushbu majlis kelajakda tariqatlar uyg'unlashuviga ehtiyoj poydevori bo'lgan. Zamonlar zayli bilan kelajakda bu ittifoq ildiz otishidan umidvorlik bo'lgan. Uch avliyoning hollaridagi namoyonlik aksi bo'lgan. Bugungi xayrli oqibatlar shu'lasi tasdig'i va isbotidir.

“Lamohat” muallifi Hazrat Olimshayx Azizon Hazrati Azizon - Xudoydodi Valining saxovati, tafakkuri, xilvat va marhamati, zikri, qanoat va himmati, g'ayrati, riyozati, tala-bi, ilmi, ma'rifati, husni-xulqi, mushohadas, fanosi, tavhidi va baqosi bayonida ham “xulq” va “xuluq”lariga xos va mos jihatlarni baralla aks ettirgan. Bu bayonlar aziz siymo Hazrat Shayx Xudoydod Azizonning oliy maqomi sadolari bo'lib, ma'rifat ahliida faxr-iftixor uyg'otishi, shubhasiz.

Suyundik Mustafo NUROTOIY,
O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasi a'zosi.

XXI asrda davlatning qudrati tabiiy resurslar yoki harbiy salohiyat bilan emas, balki bilim, texnologiya va inson kapitali bilan o'lganmoqda. Inson salohiyatini yuksaltiruvchi kuch esa maktabgacha va maktab ta'limi, texnikumlar va oliy ta'lim muassasalari faoliyati bilan bog'liq. Misol uchun, oliy o'quv yurtlari bugun ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning intellektual drayveriga aylanmoqda.

Ayni jarayonda "universitet 3.0" va "universitet 4.0" atamali modellar zamonaviy ta'lim tizimiga kirib keldi. Bu modellar universitetlar oldiga ilmiy tadqiqotlar olib borish, innovatsiya va startaplar yaratish, sanoat bilan hamkorlikni kuchaytirish, raqamli iqtisodiyot talablariga mos kadrlar tayyorlash kabi mutlaqo yangi vazifalarni qo'yimoqda. Ana shu transformatsiya jarayonida STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani integratsiya qiluvchi yondashuv) ta'limi eng samarali mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ko'pchilik STEAMni maktab



ta'limi nimani o'zgartiradi?

ta'limi bilan bog'laydi. Aslida, u universitetlarni innovatsiya markaziga aylantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mazkur model talabani passiv tinglovchi emas, balki muammo yechuvchi, ijodkor va tashabbuskor shaxs sifatida shakllantiradi. Qolaversa, u raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt, kibernetika, bioinnovatsiyalar kabi turli fanlarni bog'lay oladigan

Gaz va elektr ta'minoti masalasida ham viloyat rahbarining o'zi joylarga chiqib vaziyatni o'rganishi kerakmi?

kuchaytirmoqda.

Ammo mamalakatimiz oliy o'quv yurtlarida STEAM ta'limini tizimli joriy etish masalasi yetarli darajada hal etilmayapti. Bunday muassasalarning aksariyatida ushbu tizim tamoyillari o'quv dasturlariga standart sifatida emas, balki ayrim fanlar doirasida, parchalangan holda kiritilmoqda. Fanlar o'zaro integratsiyalanmagan, nazariya amaliyot bilan chuqur bog'lanmagan, loyiha asosida o'qitish esa tasodifiy tusda bajarilayapti. Amalda STEAM ko'p hollarda laboratoriya nomi, grant loyihasi yoki alohida to'garak bilan cheklanmoqda. Oqibatda talabalarda ko'p so'hali fikrlash, muammoni tizimli hal etish va innovatsion yechim yaratish ko'nikmalari yetarlicha shakllanmayapti.

Aslida bugungi global raqobat sharoitida universitetlar o'quv dasturlariga STEAM ta'limi standartlarini majburiy, izchil va bosqichma-bosqich joriy etish zarur. Bu jarayon fanlar o'rtasidagi sun'iy to'siqlarni olib tashlashni, o'qituvchilarning layoqatini shakllantirishni, sanoat bilan real hamkorlikni yo'lga qo'yishni taqozo etadi.

STEAM ta'limi oliy ta'lim uchun shunchaki zamonaviy o'qitish usuli emas, muassasani yangi muvaffaqiyatlarga olib chiquvchi strategik dastak bo'lishi shart.

Xurshid SAMATOV,
TATU Samarqand filiali dotsenti.

Xotira

Ezgu amal sohibi edi

Vaqt o'tadi, avlodlar almashadi, ammo ba'zi insonlar xotiralarda umrboqiy qoladi. Xudoyqul aka Qanoatov ana shunday insonlardan edi. Uning umri yillar bilan emas, qalblarda qoldirgan ezgu amallar bilan xotiramizda qoldi.

1953-yil 10-iyun kuni Xatirchi tumani Jizmon qishlog'ida Xudoyberdi aka va To'xta opa xonadonida farazand tug'ildi. Xudoyqul ismini olgan bola qishlog'i, uning zilol suvlari, so'lim dov-daraxtlariga mehr qo'yib ulg'aydi.

1960-yilda qishloq maktabiga birinchi sinfga o'qishga bordi. Xudoyqul uchun maktab shunchaki ta'lim dargohi emas edi. Bu yerda u intizomni, mehnatni o'rgandi. 1968-yilda sakkiz yillik maktabni, 1970-yilda esa qo'shni Burgan qishlog'idagi o'rta maktabni a'lo baholarga tamomladi.

Ikki yillik harbiy xizmat Xudoyqul akaning irodasini mustahkamladi. Ichki qo'shinlarda xizmat qilish orqali u intizom, vatan oldidagi burchni his qildi.

1973-1978-yillarda Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika institutida tahsil olib, uni imtiyozli diplom bilan tamomladi. Bu yillar uning faqat bilim olish davri emas, balki o'zligini topish davri bo'ldi. U tarixni faqat o'tmish deb emas, inson taqdirini shakllantiruvchi maktab sifatida qabul qildi. Shu bois u ta'lim yo'lini tanladi.

1974-yildan boshlab Jizmon qishlog'idagi 34-o'rta maktabda tarix fanidan dars bera boshladi. Qishloq maktabi ulkan minbar emas, ammo u yerda aytilgan har bir so'z bola taqdiriga ta'sir qiladi. Xudoyqul aka ana shu mas'uliyatni his etgan holda ishladi. Qishloq bolalariga tarix orqali kim ekani, qaerdan kelgani, qaerga ketayotganini anglatdi.

Beshinchi sinfda o'qiyotganimda u kishidan tarix fanini



o'rgandim. Domla sinfni jonlantiralar edi. Uning har bir savoli fikr uyg'otar, javobi ma'no kasb etardi. Darsda adolat ustuvor edi, baholar ko'z-ko'z uchun emas, bilim uchun qo'yilardi. Agar o'quvchi javob bera olmasa, uni koyimas, balki o'ylashga undardi.

1983-yilning mart oyida u atigi 30 yoshida bu foni dunyodan ko'z yumdi. Bu xabar qishloqni chuqur sukunatga cho'mdirdi. Hech kim bu yo'qotishga tayyor emas edi. Hali u ko'p ishlarni qilishi, ko'plab yoshlarga us-toz bo'lishi mumkin edi. Ammo taqdir hukmi oldida inson hamisha ojiz.

Ustoz ketdi, ammo uning so'zi, adolati, pokligi shogirdlarida yashashda davom etmoqda. Xudoyqul aka bizga shunchaki tarixni o'rgatmadi, balki inson bo'lishni o'rgatdi, shuning uchun ham u qalblarimizda tirik.

Zayniddin NORMAN,
tibbiyot fanlari doktori,
O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi.

SAMARQAND “SOVQOTIB” UYG'ONDI

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Qizig'i, elektr va gaz tarmog'i xodimlari esa odamlarni o'z tashvishlarini bir amallab ko'rib qo'ying, degan ma'noda, elektr tarmog'ida uzilishlar bo'lishi haqida ogohlantirdi.

Xo'p, qishloqda, hovlilarda yashayotganlar ko'mir va o'tin bilan uyni isitish chorasini ko'rishdi. Lekin ko'p qavatli uйда yashayotganlar-chi? Ular nima qilishi kerak?

Bundan bir necha yil avval viloyat hokimligi tomonidan aholi uchun "Samarqand kommunal" nomli telegram guruhi tashkil etilgan bo'lib, unda aynan mana shu xizmatlar bo'yicha murojaatlarga tezkor javob berilishi yo'lga qo'yilgan edi. 22-yanvardan 23-yanvarga o'tar kechasi bu kanalidagi murojaatlar har qachongidan ko'paydi:

**Sartepada svet yo'q!*

**Farovonlik mahallasida gazning hidi ham yo'q, nima qilyalik?*

**Sug'diyona maskani, chirog'imiz qachon yonadi, yosh bolalarimiz bor, axir?!*

**Kimyogarlar qo'rg'onidan-miz, 5 soat bo'ldi, svet yonmaydimi?*

Bu murojaatlarga o'z vaqtida javob ham berildi, ammo javoblarning hammasi ham murojaatchilarni qanoatlan-tiradigan darajada emas edi:

**Elektr tizimida avariya holati sodir bo'lgan, brigada ishlayapti.*

**Brigada sizlar tomonga ketdi, hozir yonib qoladi.*

**Gazni muvofiqlashtirishga harakat qilyapmiz...*

Xullas, shu kabi savol-javoblar kechasi bilan tinmadi. Orada "svetimiz yondi, baraka topinglar", degan minnatdorlik so'zlari ham bildirildi. Demak, brigadalar rostdan tinim bilmay ishladi. Bu guruhga qo'yilayotgan suratlardan ham ma'lum edi. Yarim kechasi ham elektr tizimi xodimlari jiddiy talafotlarni bartaraf etish bilan band bo'ldi. Faqat bu brigadalar

soni cheklangan shekilli, shaharning u burchagidan bu burchagiga borish, sovuq havoda ishlash oson kechmagani aniq. Ular sovuqda ishlayapti, lekin boshga joyda kimdir uyida, yosh bolalari bilan sovqotib o'tirdi. Vaqtida mavsumga yetarli tayyorgarlik ko'rmagan yoki qog'ozda "hammasi bajarildi", deb yozgan mas'ullar ham uyida jimgina o'tirgan ham aniq.

Ammo gaz masalasida ijobiy fikrni kuzatmadik.

Ko'pchilik dardini shu guruhga aytib olish bilan ham isind, nazarimda. Xullas, qishga tayyorgarlik ko'radigan bu tizim har safargiday bu gal ham bitta qattiq sovuqqa dosh bermadi. Jabrini esa kechasi bilan sovuqda tarmoqni tuzatishga yugurgan oddiy elektr xodimlari, aholi tortdi.

Hatto suv ta'minoti xodimlari ham mana shu sovuqda suv kechib, yorilgan quvurlarni sozlayotganiga guvoh bo'ldik ijtimoiy tarmoqlar orqali.

Qiziq, nega kommunal tizimimiz birgina sovuqqa dosh berolmaydi?

Har bir ishlab chiqaruvchi yoki daromad topuvchidan soliq undirish rejalari har kuni reja qilinib, muhokama etiladi. Lekin nega har bir xonadonni uzluksiz elektr toki va tabiiy gaz bilan ta'minlash masalasi bu qadar jiddiy ko'rilmaydi?

Kecha ertalab yo'lardagi muzlamalar haqida ijtimoiy tarmoqlarda fikrlar ko'payib ketgach, viloyat hokimi Samarqand shahri va shahar atrofida-gi magistrallarni tozalash holatini mas'ullar bilan birga borib o'rgandi, zarur chora-tadbirlar belgilandi. Va, kechga borib, yo'llar ancha tartibga kelib, muzlamalardan tozalandi.

Nima, gaz va elektr ta'minoti masalasida ham viloyat rahbarining o'zi joylarga chiqib vaziyatni o'rganishi kerakmi? Viloyat hokimining shu sohaga mas'ul o'rinbosari, elektr va gaz ta'minoti korxonalari rahbarlari-chi? Ular nima ish qiladi?

Gulruh MO'MINOVA.

Qurilishda sifat va xavfsizlik qanday ta'minlanadi?

Viloyat hududiy qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi nazorati inspeksiyasi qoshida faoliyat yuritayotgan qurilish-sinov laboratoriyasi tomonidan 30 dan ortiq qurilish mahsulotlari laboratoriya hamda sayyor sharoitlarda sinovdan o'tkazilmoqda. Ushbu sinovlar zamonaviy asbob-uskunalar yordamida, amaldagi davlat standartlari asosida amalga oshirilmoqda.

Navbatdagi sayyor laboratoriya sinovi Past Darg'om tumani Chortut mahallasida barpo etilayotgan ko'p qavatli turarjoy binosida o'tkazildi. Tekshiruv jarayonida binoning birinchi qavatni ustunlaridagi beton mustahkamligi davlat standartlari talablariga muvofiq ravishda buzmasdan sinash usuli orqali o'rganildi. O'tkazilgan sinovlarning dastlabki natijalariga ko'ra, beton mustahkamligi belgilangan me'yorlarga javob berishi aniqlandi.

Viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi nazorat inspeksiyasi axborot xizmati.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasida marhum Rahimov Ikrom Mahmudovichga (2019-yil 19-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Raximov Xasanga (2023-yil 21-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko'chasi.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Fayziyeva Muxabbat Shadiyevnaga (2020-yil 5-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag'rikenglik ko'chasi, 10-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarda marhum Babanbayeva Altin Ganiyevnaga (2017-yil 9-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jomboy tuman xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini so'raymiz.

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sadullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Annakulova Gulchexra Tuvalovnaga (2023-yil 4-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Sadullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasida marhum Jiyanova Izzat Ravshanovnaga (2023-yil 29-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Bog'dod ko'chasi, 1-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Giyosov Sanat Azamovichga (2024-yil 13-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino ko'chasi.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Nursaidov Shoxdorga (2025-yil 12-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasida marhum Kadirov Davron Karimovichga (2025-yil 4-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abu Rayhon Beruniy ko'chasi, 12-uy.

BEKOR QILINADI

Toyloq tumanidagi "SHUXRAT BARAKA UNIVERSAM" oilaviy korxonasining (STIR: 310687840) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Toyloq tumanidagi "KAYUMOV AKOBIR ABDURAXMONOVICH" fermer xo'jaligining (STIR: 305709156) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Sotuvchi Musurmonkulova Nigora Ravshanovna va sotib oluvchi Ergashev Davlat Shuxrat o'g'li o'rtasida Past Darg'om tumani "Kamolot" MFY, Kimyogarlar qo'rg'oni, 84-uy-joy uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasidan 2023-yil 5-fevralda tasdiqlanib, Ksh 103127 SA blankada tuzilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Payariq tumanidagi "YOSH CHEVARLAR" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 305746784) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

TOPGANGA MUKOFOT!

Samarqand shahridagi "BEK BARAKA SAMARQAND IK" xususiy korxonasiga qarashli 2023-yilda ishlab chiqarilgan, davlat raqam belgisi 30 396 ZBA bo'lgan "ISUZU FVR 34 Q" rususli yuk furgonining davlat raqami belgisi Samarqand shahri hududida yo'qolgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99893-720-00-91.

Samarqand shahridagi "NURLI KELAJAK ISHONCH SERVIS" MCHJga qarashli 2014-yilda ishlab chiqarilgan, davlat raqam belgisi 30 JA 415 bo'lgan "DX300LCA" rususli janjirli ekskovatorning davlat raqami belgisi va UA-AZ 217311 raqamli texnik pasporti Samarqand shahri hududida yo'qolgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99897-612-97-74.

Millat oydinlari

Shahrisabzlik
jadidlar

XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Turkiston zaminida vujudga kelgan jadidchilik harakati xalqimiz ma'naviy uyg'onish tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Jadidlar o'z davrida mustamlakachilik, qoloqlik va jaholat botqog'ida qolgan jamiyatni uyg'otish, inson ongida erkin fikr, milliy o'zlik va taraqqiyot g'oyalari qaror toptirishni o'zlarining muqaddas burchi deb bildilar. Ular uchun islohotning bosh mezonini – maktab, ta'lim, til, matbuot va ma'rifat edi.

O'rta Osiyo jadidlari – Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Cho'lpon, Abdurauf Fitrat, Ismoil G'aspirali kabi ulug' zotlar "usuli jadid" maktablari orqali yangi avlodni voyaga yetkazishni, milliy matbuot vositasida xalqni zamon bilan hamnafas qilishni maqsad qilishdi. Ular ilm-fan va dunyoviy bilimlarni o'zlashtirmasdan turib millat taqdiri o'zgarishini chuqur anglagan edi.

Jadidchilik harakati faqat Toshkent, Samarqand yoki Buxoro kabi markazlar bilanгина cheklanib qolmadi. Bu ma'rifat nurlari Qo'qon, Farg'ona, Xiva, Qarshi va albatta, Shahrisabz kabi tarixiy shaharlarga ham yetib bordi. Qadimiy madaniy an'analar va yuksak adabiy muhitga ega bo'lgan Shahrisabz zaminida ham jadidchilik g'oyalari o'zining mahalliy ildlariga tayanib shakllandi.

Qadimiy va navqiron Shahrisabz Xusrav Dehlaviy, Mirzo G'olib, Mirzo Bedil kabi ulug' mutafakkirlar merosi bilan bog'liq muqaddas makon hisoblanadi. Alisher Navoiyning "Xamsa"sida Shahrisabz alohida mintaqaga sifatida tilga olinib, "Sab'ayi sayyor" dostonining katta bir qismini aynan shu shahar tavsifiga bag'ishlagani ham bu diyorning ma'naviy nufuzi qadimdan baland bo'lganidan dalolat beradi.

Ana shunday tarixiy jarayonlarda shakllangan shahrisabzlik jadidlar xalqni ilm-ma'rifatga chorlash, adabiyot, xattotlik, tarjima va tarix orqali milliy ongini uyg'otish yo'lida jon fido qildilar. Ularning faoliyati va fojiali taqdiri bugun ham biz uchun ibrat maktabidir. Ushbu maqola orqali o'z davrining yetuk ma'rifatparvari, shoir, tarjimon, aruz va muammo ilmining zukko bilimdoni Qori Abdulla Gulshaniyning hayoti va ijod olamiga nazar solamiz.

1898-yilda Shahrisabz shahrining Zingiron mahallasida tavallud topgan Qori Abdulla Gulshaniy shaxsiyati orqali biz nafaqat bir shoir taqdiri, balki butun bir davr – jadidchilik harakatining murakkab va fojiali tarixini anglaymiz. Shahrisabzning Oqsaroy, Ko'k gumbaz, Gumbazi Sayidon kabi Amir Temur davriga mansub obidalari bugun ham qalbimizda iftixor tuyg'usini uyg'otadi. Ammo bu shaharning haqiqiy boyligi tosh va gumbazlarda emas, balki ma'rifat, ilm va ma'naviyatni hayot mazmuniga aylantirgan insonlar merosida mujassam.

O'z davrining ziyoli, ma'rifatparvar shaxslaridan biri Mirza Salimbek Mirza Rahim o'g'li 1848-yilda tug'ilgan bo'lib, Buxoro amirligida yuqori lavozimlarda faoliyat yuritgan nufuzli davlat arbobi edi. U 1910-1914-yillarda Shahrisabz viloyati hokimi sifatida faoliyat ko'rsatgan.

1914-yilda Toshkentda toshbosma usulda chop etilgan "Tuhfatul ahhob fi tazkiritil as'hobi ma'a tarixi kasirai majmuai Salimiy" asari jadidlar tarixini o'rganishda beqiyos manba sanaladi. Unda Buxoro amirligi tasarrufidagi hududlarda yashagan 220 dan ortiq ijodkor haqida ma'lumot berilib, ular ijodidan namunalar keltirilgan. Tazkiraada Qori Abdulla Gulshaniy ham yosh shoir sifatida tilga olinadi. Demak, u Mirza Salimiyning tengdosh do'sti emas, balki uning himoyasida kamol topgan yosh shogirdi bo'lgani tarixiy haqiqatga yaqin.

Shahrisabz jadidlari faoliyati Mirza Salimiyning yana bir asari — "Tarixi Salimiy" orqali ham yaqqol namoyon bo'ladi. Ammo 1914-yilda Mirza Salimbekning Buxoroga chaqirilishi va uning o'rniga Akramxon to'ra-niing tayinlanishi bilan Shahrisabzdagi jadidchilik harakatiga qattiq zarba beriladi. Ismoil G'aspirali tashrif buyurgach, endigina ildiz otayotgan ma'rifatparvarlik harakati ta'qiqqa uchraydi.

Bu davrda mashhur xattot va shoir Mirza Yunusxo'ja Rojiy Shahrisabziyning nohaq qatl etilishi shahar tarixidagi eng muhim sahifalardan biri bo'lib qoldi. Uning husnixati bilan ko'chirilgan Mirzo Bedil devoni bugun ham Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanib, bebaho ilmiy yodgorlik sifatida e'tirof etilmoqda. Rojiy bilan bir qatorda Isomiddin Shahrisabziyning surgun qilinishi, Abdullobekning zindonga tashlanishi, Abdurahmonbekning qatl etilishi jadidlar taqdirining qanchalik fojiali bo'lganini ko'rsatadi.

Bu nomlari keltirilgan ziyolilar Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "Tilda, fikrda, ishda birlik" g'oyasi bilan maydonga chiqqan va xalqni jaholatdan qutqarishning yagona yo'li bilim va ma'rifatda ekanini anglaganlar edi.

Shu bois shahrisabzlik jadid bobolarimiz qoldirgan qo'lyozmalarni ilmiy jihatdan chuqur o'rganish, ularni nashr etish, muzeylar va ta'lim muassasalarida keng targ'ib qilish – nafaqat tarix oldidagi burchimiz, balki kelajak avlod oldidagi mas'uliyatimizdir. Ajdodlar merosini anglagan yosh avlod esa Yangi O'zbekistonning munosib bunyodkori bo'la oladi.

Ahadxon MUHAMMADIYEV,
Shahrisabz davlat pedagogika
instituti professori.

AHMOQ PODSHO

Qadim-qadimdan xalq nodon hukmdorlar us-tidan kulib, ertaklar, matallar to'qigan. Shulardan biri "Ahmoq podsho" degan o'zbek xalq erta-gidir. Uning qisqacha mazmuni quyidagicha:

Bir o'g'ri kambag'alning uyini tunamoqchi bo'ladi. Tunda tom oshib kirayotganida, tom o'pirilib, o'g'ri yiqilib tushadi va podshoga arzga boradi. Podsho arzing nima, deb so'raganida:

- Tomini bordon bilan omonat yopgan ekan, yiqilib oyog'im sinishiga ozgina qol-di. Bu uchun uy egasiga jazo berishingizni so'rayman, - deydi. Podsho kambag'alni chaqirtirib, jazolamoqchi bo'ladi. Kam-bag'al aybni ustaga to'nkaydi, ustani ush-lab kelishadi. Usta bordonchini, bordonchi kaptarbozni ayblaydi va hokazo. Xullas, ish aylanib-aylanib yana o'g'riga kelib taqaladi.

O'g'rini ossalar, novchaligidan oyog'i yerga tegib qoladi. Uning o'rniga osish uchun pakana odamni tutib keltirishadi. Axir kim-nidir jazolash kerak-da. Pakana, bo'yi past bo'lsa ham, anchayin aqli ekan. U pod-shoga dorning tagini chuqurroq kavlashni maslahat beradi. Podsho yerni kavlatib, o'g'rini osishga buyuradi. Shu payt o'g'ri:

- Meni tezroq osa qolinglar, - deb yali-na boshlaydi. Podsho undan:

- Nega buncha o'limga shoshilasan? - deb so'raydi. O'g'ri unga:

- Hozir jannatning podshosi o'lib qolibdi, men tezroq borib podsho bo'lishim kerak. Jannatning pod-shosi o'layotib: "Kim birinchi bo'lib kelsa, o'sha odamni pod-sho qilinglar", debdi. Shuning uchun shoshilyapman, - deya yana qistay boshlaydi. Ah-moq podsho:

- Iye, unaqa bo'lsa, jannatda ham o'zim pod-sho bo'lay, dorga meni osa qolinglar, - debdi va dorga tortilib, fuqarolari undan qutulgan ekan.

Garchand, bu ertak xalq og'zaki ijodi mahsuli bo'lsa-da, bugungi dunyodagi ayrim voqealar shu cho'pchakka juda-juda o'xshab ketadi. Ya-qinda AQSh prezidenti Donald Tramp Ukrainada tinchlik sulhi tuzilmayotgani uchun yana Zel-enskiyni ayblab chiqdi. Go'yo, urushni boshlagan Vladimir Putin tinchlik istayotgan emishu, bunga Ukraina prezidentini to'sqinlik qilayot-gan emish. Yuqoridagi ertakdagidek, o'g'ri bu yoqda qolib, jabrlangan ukrainlar jazoga mahkum emish. Aslida Trampning Zelenskiyni xushlamasligi boshidan ma'lum edi. Chunki u bir payt-lar vaziyatdan kelib chiqib, sobiq prezi-dent Bayden bilan qadrdonlashib, uning o'g'lini muqarrar jazodan xalos etganligi tarixiy fakt. Tramp esa Baydenni o'lgudek yomon ko'radi. Endi Tramp nima uchun Putinga buncha yon bosadi, degan savolga ham javob mavjud. Uzunquloq gaplarga q-a-raganda, Trampning biznesi 2008-yilda xatarli inqiroz yoqasiga kelib qolganida, uni Krem-ldagilar tanazzul botqog'idan chiqazib qo'ygan, deiyshadi. Buning ustiga to'liq tasdiqlanmagan ma'lumotlarga ko'ra, Trampning hokimiyat tepa-siga kelishiga rus maxfiy maxsus xizmati hisssasi borligi taxmin qilinadi. Moskva esa buni rad etib keladi. Ekspertlarning aytishicha, aynan shu omil-lar Trampning Putinga bo'lgan simpatiyasining bir-lamchi sabablaridir. Ikkinchi tomondan, "Ko'r ko'rni qorong'ida taniydi", deganlaridek, bu ikki arbob xuddi egizaklarni eslatadi. Ikkiisi ham o'ta shuhrat-parast, o'jar, jizzaki, ginachi, kalondimog' va ayyor. Ikkoivi ham o'zini xaloskor, deb hisoblaydi. Biri o'zini Amerika dunyosining tayanchi deb hisoblasa, ikkin-chisi rus dunyosining pushti panohi deb biladi. Ikkalasi ham nomi dunyo tarixi sahifalarida zarhal harflar bilan yozilishini istaydi. Eng yomoni, Tramp ham, Putin ham xalqaro huquq va qonun me'yorlarini bir tiyinga olmay-di. Bu borada Tramp dunyodagi barcha diktatorlarni bir cho'qishda qochirmoqda. Masalan, u yaqinda Grenlandiya orolini AQShga qo'shib olish tashabbusi bilan chiqdi. Kimda kim uning ra'yiga qarshi chiqsa, o'zaro savdoda o'n foizlik poshliina (to'lov) ham e'lon qilib yubordi. Yevropa davlatlari darhol burcha qarshi choralar ko'rmoqchi. Ular orolni himoya qilish uchun bir necha yuz askarni Grenlandiyaga jo'natishdi. Ammo Tramp orolni qo'lga kiritishga astoydil bel bog'lagan. Hatto u 700 milliard dollar xarajat qilib, Grenlandiyani Daniyadan sotib olmoqchi bo'lib turibdi.

Bir tomondan olib qaraganda, bugungi notinch dunyoda Gren-landiya AQSh uchun strategik ahamiyatga ega hudud hisoblanadi. Shu ma'noda, Amerika Daniya bilan qandaydir kelishuv yoki shart-noma asosida oroldan foydalanib turishi ham mumkin. Qolaversa, hozirning o'zida shundoq ham Grenlandiyada AQShning katta harbiy bazasi mavjud. Ammo Trampni biznesmen sifatida masalaning bosh-qa tomoni ham qiziqtiradi. Arktikadagi tabiiy boyliklar bugun nafaqat Amerika, balki Rossiya va Xitoy kabi yirik, qudratli davlatlarniyam ko'zi-ni o'ynatmoqda. Bu esa Trampga mutlaqo yoqmayapti.

MIYADAGI KAPALAKLAR

Kapalaklar, ularning go'zalligi haqida yozmagan biror shoir topilmasa kerak. O'zbek xalq shoiri Muhammad Yusuf ham "Kapalaklar odamlardan mehribon" deya ularga juda yuksak baho bergan. Ammo biologik jihat-dan olib qaralsa, kapalaklar tabiatga katta zarar keltiruvchi zararkunanda qurtlarning onasi yoki bolasi hisoblanadi. Bugun go'zalligi bilan havasizingizni qo'zg'agan nafis kapalak ertaga badbashara va yoqimsiz qurtga aylanadi.

Qarangki, bu xildagi evrilishlar jamiyatga ham xos hodisa ekan. Shu jihatdan jamiyat tabiatning uzviy bir qismi ekanligi yana takror tasdiqlana-di. Aytaylik, o'zimizning eng yaqin tariximizni olib ko'radigan bo'lsak, rus

Kapalaklar
o'yini

bosqinidan keyin xalqimiz Rossiya qo'l ostida yashadi. Qonxo'r Nikolay poshshoning zulmi avjiga yetgach, o'z xalqi unga qarshi chiqdi va bu xunuk maxluqni, tashbeh bilan aytadigan bo'lsak, "qurt"ni ezig'ilab tash-ladi. Ammo uning o'rnida jozibali g'oyalari bilan Vladimir Lenin paydo bo'ldi. 1924-yilda u ajali yetib vafot etdi. Uning o'rniga zolim losif Stalin paydo bo'ldi. 1953-yilda uni o'z safdoshlari narigi dunyoga jo'natishgach, islohotchi Nikita Xrushchev siyosiy maydonga chiqdi. Uning siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlari yoqingiramadi shekilli, 1964-yilda firqadoshlari uni Kremldan haydab chiqarishdi. Natijada Leonid Brejnev hokimiyat tepa-siga kelib, Stalinchga boshqarish uslubini qayta tikladi. 1985-yilning ba-horidan rus siyosiy dalasida demokrat Gorbachyov parvoz qila boshladi. Uning parvozini izdoshi Yelsin davom ettirmoqchi bo'lgandi, ammo evrilish fursati birdan yetilib, Putinni chiqardi. Mana, 25 yildirki, u o'zining no-bop faoliyati bilan nafaqat rus jamiyatini, balki jahon hamjamiyatini ham halokat jarligi yoqasiga keltirib qo'ydi. Oqibatda, dunyo xalqlari Uchinchi jahon urushi xatari bilan yuzma-yuz bo'lishdi.

Amerikada ham shu ahvol. Faqat farq shundaki, ularda evrilishlar har-to'rt yilda sodir bo'lib turadi. Demokratlar va respublikachilarning galma-gal almashinuvi AQSh siyosatini o'zgartirib turishi hammaga ma'lum. Ularda ham "kapalaklar va qurtlar" evrilib turadi. Farqi shuki, ular ipak qurtlarga o'xshay-di va faoliyatini o'z xalqi farovonligini oshirishga yo'naltiradi. Bu orada jahon bog'ida qanchadan-qancha tutlar kesilib ketilishi amerikaliklarni mutlaqo qiziqitirmaydi. Chunki pul chiqaradigan dastgoh AQSh qo'lida. Demak, dunyo boyliklarining barisi amalda bo'lmasa ham, aslida Amerikaning mulki bo'lib chiqadi. Qachonki, dunyoda dollar hukmronligiga barham berilmagunicha shu holat davom etaveradi. Trampning Yevropaga qarshi turishi asosida ham dollar bilan raqobatlashayotgan yevroning piligini pasaytirib qo'yish maqsadi turganligini sezish qiyin emas. Bu yo'lida u huquqiy me'yor yoki xalqaro shartnomalarga amal qilish istagidan mutlaqo yiroq. Shu ma'noda, Putin Rossiyani XIX asrga sudrayotgan bo'lsa, Tramp Amerikani XVII-XVIII asrga qitmoqda. Ana o'sha yillarda yevropalik kolonizatorlar yangi-yangi hududlarni egallash maqsadida bir-birlari bilan davomli urushlar olib borgan. Tramp ham xuddi o'shalardek Meksika, Kanada, Panama, Kuba, Grenlandiya singari qo'shnilarini Amerikaga qo'shib olish ilinida.

YANGI ASR - YANGI DUNYO

Ko'pchilik davrlar almashinuvi, shunchaki, shartli bir chegara, deb o'ylaydi. Aslida esa bunday emasga o'xshaydi. Masalan, Vladimir Pu-tin 2000-yilda hokimiyat tepasiga keldi. Xuddi shu yili Donald Tramp ham prezident bo'lish umidida siyosiy harakatini boshlab yubordi. Bu tasodifiy? Ma'lumki, fizikada rezonans hodisasi degan tushuncha bor. Ta'sirlanayotgan ikki jismning tebranish chastotasi bir-biri bilan mos kelib qolganda tebranish kuchi bir necha barobar kuchayib, halokatli oqibatlariga olib kelishi mumkin. Aynan shu bois ham, ko'prikan o'tayotgan askarlarga tartibsiz qadam tash-lash buyuriladi. Afsuski, shu kunlarda Tramp bilan Putinning harakati rezo-nans holatida tushib qoldi. Biri tezroq Nobel tinchlik mukofotini olish payida, ikkinchisi tezroq Ukrainadan Donbassni jangisiz tortib olmoqchi. "Qassobga moy qayg'usi, echkiga jon qayg'usi", deganlaridek, jafokash ukrain xalqi dushmanga qarshi janglarda jon olib jon bermoqda. To'g'ri, ularga AQSh boshliq Yevropa mamlakatlari madad qilib turibdi. Bir vaqtlar amerikalik mashhur siyosiy arbob Genri Kissinjer: "Amerikaga dushman bo'lish xavfli, do'st bo'lish esa halokatli", degandi. Dunyodagi keyingi voqealar buni bata-mom tasdiqladi.

2025-yil 28-dekabrda Eronda xalq g'alayonlari boshlanib ketdi. Tramp-niing tutyruqsiz va dalari oqibatida minglab isyonchilar halok bo'ldi. Tramp Oyatilolalar rejimiga qarshi bosh ko'targan isyonchilarni gij-gijlab, ularga va'da qilingan yordamni yubormadi. Natijada isyon bostirilib, o'n minglab odamlar qamoqqa olindi. Ukrainada ham urush jabrdiydalariga tinchlik va'da qilib, ustidan chiqilmadi. Sharqiy Ukrainadagi shahar va qishloqlar bata-mom vayron qilindi, Markaziy va G'arbiy viloyatlarda infrastruktura inshoot-lari ishdan chiqarilmoqda. Maqsad Ukrainani holdan toydirib, taslim qilish ekanligini Kreml ochiq tan olib aytmoqda. Biroq ukrainlar har qachongidan jipsroq uyushib, vatanlarini mardona himoya qilishmoqda. Bu orada Ukraina qurolli kuchlari zamonaviy texnika va harbiy tajriba bo'yicha jahonning pesh-qadam armiyalaridan biriga aylanib ulgurdi. Berilayotgan hisobsiz qurbonlar, iqtisodiy mushkulliklar va xalqaro sanksiyalar Kremlni tinchlik muzokaralari-ni boshlashga undamoqda. Urushni cheksiz davom ettirish mumkin emas, g'alaba qilishga esa kuch yetmaydi. Xullas, bugun rus ma'murlari go'yo boshi berk ko'chaga kirib qolgandek. Ular uchun endilikda yagona bir dastak qoldi, u ham bo'lsa, atom - yadro qurolli. Kremlidagi urushqoq quzg'unlar har dam-har damda yadro kaltaklarini o'qtabil, dunyo hamjamiyatini qo'rqitmoq-chi bo'lyapti. Biroq shuni esdan chiqarmaslik kerakki, yadro qurolli raqiblarda ham bor. Shu ma'noda, uni amalda qo'llash urushqoqlarning o'zi uchun ham halokatli bo'lishi mumkin.

Biz yuqorida maqolamizni ahmoq podsho haqidagi ertak bilan boshlagan edik. Ammo hozirgi podsholar o'ta aqli va ayyor. Ular o'zini jo'rttaga jinni-likka solishi mumkin. Bu ham mimikriyaning bir ko'rinishi bo'lsa ajab emas. Qolaversa, uch-to'rt yildan keyin kapalaklarning pilladan chiqish muddati ham yetib qoladi. Bu so'ngsiz jarayon abadiy davom etaveradi.

Xudoyberdi KOMILOV,
siyosiy sharhlovchi.

Yangi kitob

Kattaqo'rg'ondagi Suvombori qishlog'ida yashovchi Sadoqat Hamroyeva nomi ijtimoiy tarmoqlarda ancha tanilib qoldi. Bu qiz vujudidagi so'z aytishga tashnalik, qonidagi Xudo bergan iqtidor va xislatidagi zukkolik, agar sinchiklab o'qisangiz, she'rlarida ham yaqqol seziladi. Ochig'i, o'zim ham ba'zi tadbirlarda o'qigan mashqlarini eshitib, hali oliy maktab ko'rmagan qizdagi mahoratga havas qilganman. Shuning uchun ham "Ilm-ziyo-zakovat" nashriyotida chop etilgan yangi kitobini ishtiyoq bilan o'qidim.



“YURAGIMDA ENTIKAR BAXTLAR”

Xulosamni oldindan aytсам, ayb etmang: Samarqand adabiy muhiti o'zining yana bir Xosiyatiga, Erkatoshiga, Juma-guliga va Guljamoliga ega bo'lyapti!

Bu fikrim bejiz emas. Sadoqatda tinimsiz yozish ishtiyoqi barobarida inson ruhiyatini anglash, uning suv-ratini chizish mahorati kuchli. U nafaqat tabiat ranglari, ko'ngil tuyg'ularidan, balki atrofidagi har bir narsadan mohiyat qidiradi va... muhimi, uni topa biladi. Shu sababli she'rlari-da bayondan ko'ra kechinmalar ustuvor: "Osmon yerga yomg'ir ilindi" ("Yomg'ir yog'sa"), "Jonimga tig'da-yin botadi sog'inch" ("Sensiz"), "Sabrim-dan uzilgan so'nggi tomchiday" (...), "Jim turib, jimlikda ham Ko'ngil sinar, voajab!" ("Sog'indim"), "Gar sabrga kimki haykal qo'yar bo'lsa, U ayolning timsoliga qo'yil-gaydir" ("Ayol zoti"), "Darz ketgan ko'ngil-da qulaydi Sabrdan yasalgan qoyalar" (...), "Bu olchoq hijronda hadsiz talangan" ("Kutish"). Bundan tashqari she'rlarda "bargparchin yo'lka", "iymon otlig' zirh", "vaqt tosh otar", "Ming tilim yurakning bandi hislari", "parcha dilni parchalar xa-yol" kabi chiroyli tashbehlar ham e'tiborin-gizni tortishi bor gap.

Kitobda "Sensiz" degan she'r bor.

Unda ishqi munosabatlar xotirlanadi, she'r qahramoni o'sha qadrdon saylgohni aylana ekan, shirin damla-rini eslaydi. U bor atrofda sog'inch, armon ko'radi: "Telbaday kezaman ko'zlari giryon, Yurak shod damlarni qo'msayveradi", "Har sas ovozingga o'xshayveradi"... Muallif uni juda chiroyli yakunlagan:

"Na borib o'tirdim, na keta oldim, Qarshimda chiqqanda bo'm-bo'sh o'rindiq!"

Bunday go'zal xulosala-rni boshqa she'rlarda ham uchratish mumkin.

Darvoqe, kitobga so'zboshi yozgan va muharrirlik qilgan taniqli shoir Shodmonqul Salom aytganidek, "Uning bitganlarini o'qib, bir sodda haqiqatga amin bo'ldim. She'rning joni samimiyatda ekan!... o'z qalbidan haqiqatni izlab ya-shayotgan, "Kechmasa-da, barisi yengil, Kel, boshqacha yashaylik, yurak", deya zavqla o'rtanayotgan shoiraning lafziga ishongingiz keladi". Darvoqe, 2018-yilda ham Sadoqatning "Ko'ngil ko'zgusi" nom-li to'plami chop etilgan ekan.

Siz ham bu kitoblarni topib o'qing, bahra oling, kattaqo'rg'onlik dilbar shoiramizga tuyg'udosh bo'ling...

Farmon TOSHEV.

Taqdir



hukmi

Turmush chorrahalarida

ko'raman. Uylanishimdan oldin qizga osmondagi oyni va'da qilib, to'ydan keyin so'zining ustidan chiqmaydigan yigitlar-ni yoqtirmayman.

- Rahmat, Hafiz aka, ko'nglingizdagi ma-qsdangizni ochiq aytganingiz yaxshi bo'ldi. Men ham shuni qanday aytsam ekan, deb o'ylanib turgandim. Men siz aytganday cho'ri bo'lib turmushga chiqqim yo'q. Oilamda o'z o'nim, fikrim bo'lsa, qaynota-qaynona, qayinsingil, qaynopalarning aralashuvsiz mustaqil ya-shasam deyman. Afsuski, niyatlarimiz bosh-qa-boshqa ekan. Uzi! Mana, gullaringizni oling!

Xayr, boshqa baxtingizni toping!

- Feruza, Feruza, to'xtang siz meni tushunmadingiz...

- Hafiz qo'lidagi gulni nima qilishni bilmay, qizning ortidan qarab qoldi. "Ey, attang! Govkalla birinchi marta uchrashgan qizga shunday shart qo'yadimi?". Hafizning oromi yo'qoldi. Hali hech qachon azobli ammo bunday shirin tuyg'uni his qilmagan edi. U Feruzani sevib qolgandi. Bunday muqaddas tuyg'uga Feruza ham ega bo'lganda edi: «Xafa qilib qo'yma-dimmi?».

- Barakalla o'g'lim, Feruzaga ma'qul bo'libsana, ota-onasi rozi, - Sora buvi Hafizni yelkasiga qoqib qo'ydi. ... Bu gal xiyobonda Feruzani Hafiz kutib oldi.

- Mana bu guldasta sizga. Feruza guldastani bag'riga bosdi.

- Buncha chiroyli! Xo'sh, kelin qanday bo'lishi kerak de-gandingiz? - Feruza sho'xlik bilan Hafizga qaradi. Ikkalasi ham sharaqlab kulib yuborishdi.

- Qani, ketdikmi, bir muzqaymoq yeb, yuraklar hovurini bosaylik. - Hafiz qizga bilagini tutdi.

Tog'aymurod SHOMURODOV.

VIJDONNING BUGUNGI SO'ROGI

Ota-onaning holidan
xabar olish mehrgina
emas, majburiyat
hamdir.

Umr

Nazm

Yoshimni so'raydi odamlar ba'zan,
"Necha bahor ko'rdi boshginang, qizim?
Dunyoga kelgansan aytgin qay zamon,
Kimning dilbandisan, bilaylik, qo'zim?"

O'ylanib qolaman... Qancha yashovdim?
Bir, ikki, uch... Shularmi umrim?
Yil va son muhimmas. Qanday yashovdim?
Bir nafas, bir jasad - shumidi borim!

(Sanoqni mutlaqo unutdim go'yo,) Yoshimni hali ham bilganimcha yo'q.
Bir o'g'il dunyoga keltirdim ammo, Lek o'zim dunyoga kelganimcha yo'q.
Tozaqul JANGABOYEVA,
Ishtixon tumanidagi 74-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi.

Onalik

Kecha "onajonim" degan qizaloq Bugun, qarang, ona bo'lib turibdi.
Ona kabi tunlar riyozat chekmay Kim ham ona qadrin bilibdi?

O'z bolam so'zimga kirmasa agar, Iztirobim bo'lgay beshumor.
Endi bildim, onam peshonasida Nechun qat-qat chiziqlari bor.

Tongda shirin non yopgan onam, Bizdan ortib ketmonda chopgan.
Tikon kirsang, og'ritmayin, deb, Kiprikda shu tikonni topgan.

Onam tetik, onam zo'r, debman, O, g'o'rlikdan g'amin yemabman.
Dardlarimni to'kibman, ammo Unda ham dard borku, demabman.

Fidolikka tayyorman bul kun Bergan mehru ardog'ingizga.
Hatto poyin egib osmonning Sajda etay sizning oyog'ingizga.
Dilorom HUSANOVA.

Ko'z emas, zabonlar so'zlasin Ilojsizlik



Men go'yo askarman, jangchiman go'yo,
Dunyoda qolmagan men yengmagan kuch.
Hech kimda kuch yo'qdir, bo'lmagay, illo,
Men bilan yuzma-yuz kelmoqlikka duch.

"Kim menga bas kelar?!" - so'rayman savol,
Kimsaning sadosi chiqmaydi, ajab.
Qo'limda qalqon-u belimda qilich,
Shu holda Kubroga o'xshayman, yo Rab!

Xaritani ochdim. Qayerni qiray?
Tuproqda qolmasin bironta g'anim.
Keyingi yurishni o'ylayman-u lek Yodimga tushadi ayol ekanim.

So'ng yomg'ir bo'laman, bo'laman oftob.
Esimdan chiqadi askar ekanim.
Chelaklab yuvaman dunyoni kirdan Jalaga aylanar vujudim, tanim.

Shiltasi chiqqan bu zaminni quchib, Quyoshdek isitmoq istab turibman.
Ko'kdan yog'ilmoqchi bo'laman, ammo, Eslayman: Osmonmas, yerda yuribman!

Go'yo she'r yozaman kun bo'yi tinmay, She'rlarim dovruq'i olamni tutgan.
Dunyoda neki bor yomon illatlar, Barchasi so'zimdan shifosin topgan.

Menga shogird edi o'shal Zulfiya, Qofiya, turoqni o'rgatgan o'zim.
Mendan so'z qarzar olar edi shoirlar, Go'yoki dunyoda shoh asar - so'zim!

Shunday shijoatlar yashatar meni, O'zi men ijodda bir no'noq shoir.
Aslida ruhim bu zaminga emas, Navoiy yashagan olamga doir.

Parchalab tashlansin ichilgan qasam,
Tap tortmay qaytilsin aytilgan so'zdan.
Bosish ham mumkindir orqaga qadam,
Qaytish bor g'urur-la yurilgan izdan.

Bas! Ortiq hech kimsa turmasin so'zsiz, Tildagin diliga ko'mmasin aslo.
Bas, buzib tashlansin og'izning qulfi, Ko'z emas, zabonlar so'zlasin, illo.

Murvati buzilgan buyum singari Teskari aylansin dunyoning charxi.
Rozimiz chappa, ters aylansin borliq, Balki shunda oshar ko'ngilning narxi.

Sen ham aytolsayding ko'zimga qarab, Aytolsayding: Endi men boshqa odam.
Qachonlardir ichgan "o'sha" ontingdan, Lafzsizdek voz kechib yuborsang bir dam.

Ontingni unut va qarshimda ont ich, Jimsan biroz. Sukut saqlasin diling.
Ko'zing yetarlicha gapirdi zotan, Teskari zamonda so'zlasin tiling.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 794 nusxada chop etildi. Buyurtma 30. Hajmi 3 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

F.RO'ZIBOYEV.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda